

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA
MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Turizm fakulteti

Turizm kafedrası

Himoyaga ruxsat etildi

Kafedra mudiri _____ i.f.n., dots. H.R.HAMROEV

«_____» _____ 2017 yil

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: Mehmonxona xo`jaligida mobil marketing imkoniyatlari
va foydalanish afzalliklari**

**Bajardi: 5610200 – “Mehmonxona xo`jaligini tashkil etish va
boshqarish” ta`lim yo`nalishi 4-bosqich 3-1MX-13 guruhi bitiruvchisi
Mehmonxona xo`jaligida mobil marketing imkoniyatlari va foydalanish
afzalliklari**

Ilmiy rahbar:

Xurramov O.Q

Himoya sanasi

D.A.K.ning bahosi

«_____» _____ 2017yil

D.A.K.ning xulosasi _____

Buxoro – 2017

Mundarija:

KIRISH.....	4
1-BOB. MOBIL MARKETINGNING NAZARIY ASOSLARI VA MEHMONXONA XO`JALIGI UCHUN MOHIYATI	
1.1. Mehmonxona xo`jaligida marketing muhitining ahamiyati.....	7
1.2. Marketing bilan bog`liq bo`lgan Internetning imkoniyatlari.....	14
1.3. Mobil marketing –zamonaviy internet marketingning usuli sifatida...	28
1.4. Mobil marketing texnologiyalari va ularning afzalliklari.....	32
2-BOB. MEHMONXONA XO`JALIGIDA MOBIL MARKETING IMKONIYATLARI VA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	
2.1. O`zbekistonda mobil marketingning rivojlanishi tendensiyasi.....	37
2.2. Mehmonxona xo`jaligida mobil marketing samaradorligini baholash..	42
2.3. Turizm sohasida mobil marketing imkoniyatlaridan foydalanish yo`llari.....	50
2.4. “Rangrez” mehmonxonasida mobil marketing imkoniyatlaridan foydalanish istiqbollari.....	56
XULOSA.....	62
ANNOTATION.....	65
ADABIYOTLAR RO`YXATI.....	75
ILOVALAR.....	81

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. XX asrdagi axborot texnologiyalarining eng ahamiyatga molik yutuqlaridan biri bo`lib internetning paydo bo`lishi va rivojlanishi hisoblanadi. O`zbekistonda jahon tendensiyasiga hamohang tarzda axborot-kommunikatsion texnologiya va tizimlar, internet, shu jumladan mobil internet jadal rivojlanib, ommalashib bormoqda. Bugungi kunda internetdan foydalanuvchilar soni 13 million kishidan oshdi. Respublikamizda internetning o`tkazuvchanlik darajasi 4 barobar oshirildi, internetga ulanish tezligi esa 1,5 marta ortdi.

Internet ajoyib muhitni tashkil etadi. Uning yordamida har bir korxona o`zi ishlab chiqargan tovarlar va xizmatlar to`grisida ma`lumotlar tarqatishni amalga oshirishi, marketing izlanishlar olib borishi, o`z mijozlari bilan savdo-sotiqdan keyingi aloqani davom ettirishi mumkin. Xususiy va uncha katta bo`lmagan korxonalar internet texnologiyalariga asoslangan elektron marketingning afzal tomonlaridan keng foydalanish imkoniyatiga ega bo`ldilar.

Mobil marketing –simsiz telefonlar yoki telefon turiga kiradigan uskunalar, telekommunikatsion texnologiya va tizimlar orqali marketingni amalga oshirilishidir. Ya`ni, Mobil marketing tovar va xizmatlarni harakatlanishini, marketing va reklama aksiyalarini uyali telefon vositasida amalga oshirishdir.

Mobil marketing texnologiyalariga SMS marketing, IVR (ovozli xizmatlar), MMS, Mobil kontent, Java va o`yinlar, Bluetooth, QR kodlardan foydalanish, Mobile Apps imkoniyatlari kiradi.

Internetda u yoki bu turistik mahsulot haqidagi video, rasmlarni tomosha qilishingiz va bu mahsulotlar to`grisida boshqalar qoldirgan fikrlarni o`qishingiz mumkin. Siz o`z dam olishingizni modellashtirasiz, o`zizga moslab olasiz. Turagentliklar turli reklama va qiziqtiruvchi takliflarga boy. Tog` turizmi, velosiped turizmi, piyoda, suvda va hokazo. Siz faqatgina turlarning xillari, narxi,

yashash sharoitlari, madaniy programmalariga ko'ra saralashingiz va eng yaxshisini tanlashingiz mumkin.

Texnika sohasidagi taraqqiyot bir joyda turmaydi, va u o'z ta'sirini ko'rsatmagan soha ham yo'q. Bu taraqqiyot turli yo'l hujjatlari, asosan avia chiptalari savdosiga ham ta'sir ko'rsatdi. Bizning kundalik lug'atimizga elektron avia chipta degan ifoda o'rnashdi. Bu kabi chiptalar samalyot uchun odatiy chiptalar hisoblanib, turli ko'rinishlari mavjud. Biz aviakompaniya dizayni bilan bezatilgan standart avia chiptalarini ko'rishga ko'nikkanmiz. Bu kabi chiptalar parvozingiz to'g'risidagi ma'lumotni ham o'z ichiga oladi. Elektron chiptalarda ham xuddi shunday ma'lumotlar mavjud, faqatgina ular biror bir aviakompaniyaga taaluqli dizaynga ega emas. Elektron chiptalarning bir nechta afzalliklari bor: bunday chiptalarni yo'qotish, bexosdan tashlab yuborish, hattoki o'g'irlatish ham mumkin emas. Yo'lovchi va uning reysi haqidagi to'liq ma'lumot avia kompaniya serverida elektron shaklda saqlanadi. Mijoz qo'liga marshrutkvitansiyasini (itinerary receipt) oladi va uni istalgan printerda osonlikcha chiqarish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi: Mehmonxona xo'jaligi uchun mobil marketing imkoniyatlaridan foydalanishning afzalliklari nazariy va amaliy bilim va ko'nikmalarni hosil qilish va ularni mehmonxona xo'jaligida qo'llash.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari. Qo'yilgan maqsadga erishish quyidagi vazifalar yechimi bilan bog'liq:

- Mobil marketing va uning jozibadorligi.
- Mehmonxona xo'jaligida mobil marketingning ahamiyatini o'rganish.
- Mobil marketing usullari va ularning xususiyatlari.
- Xorijiyda va mamlakatimizda Mobil marketingning qo'llanilishi.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy qismi. . Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, xulosa, annotatsiya, foydanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

1-bob “Mobil marketingning nazariy asoslari va mehmonxona xo`jaligi uchun mohiyati” deb nomlangan bo`lib, unda mehmonxona xo`jaligida marketing muhitining ahamiyati, marketing bilan bog`liq bo`lgan Internetning imkoniyatlari mobil marketing–zamonaviy internet marketingning usuli sifatida, mobil marketing texnologiyalari va ularning afzalliklari bayon etilgan.

2-bob “Mehmonxona xo`jaligida mobil marketing imkoniyatlari va foydalanish istiqbollari” deb nomlangan. Bu bobda O`zbekistonda mobil marketingning rivojlanishi tendensiyasi, mehmonxona xo`jaligida mobil marketing samaradorligini baholash, turizm sohasida mobil marketing imkoniyatlaridan foydalanish yo`llari hamda “Rangrez” mehmonxonasida mobil marketing imkoniyatlaridan foydalanish istiqbollari keltirilgan.

Bitiruv malakaviy ish oxirida xulosa, adabiyotlar ro`yxati hamda ilovalar keltirilgan.

Bitiruv malakaviy ishning ahamiyatli tomoni shu mavzuda o`zbek tilida bajarilgan ilk ish sanalishidir.

Tadqiqotlar doirasida quyidagi ilmiy ish e`lon qilingan:

1. Xurramov O.K., Ravshanov M.M. Mehmonxona xo`jaligida internetda marketing faoliyati samaradorligini baholash omillari. “Ta`lim va iqtisodiyot sohalarini takomillashtirish masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumanning maqolalar to`plami. 28.01.2017, Buxoro, 116-120b.
2. Ravshanov M.M. Mehmonxona xo`jaligida mobil marketing imkoniyatlari va foydalanish afzalliklari. An`anaviy professor o`qituvchilar va talabalarning ilmiy konferensiyasi. BuxDU 2017 yil. (Turizm yo`nalishi sho`basi bo`yicha maqola 2-o`rinni egallagan).

1-BOB. MOBIL MARKETINGNING NAZARIY ASOSLARI VA MEHMONXONA XO`JALIGI UCHUN MOHIYATI

1.1. Mehmonxona xo'jaligida marketing muhitining ahamiyati

Mehmonxona xo'jaligi yoki turistik korxona ichida hamda boshqa iqtisodiy sub'ektlar orasida tashkil bo'ladigan xilma-xil munosabatlar bilan bog'liq bo'lgan va doimo o'zgaradigan sharoitlarda amal qiladi. Bu munosabatlar yig'indisi marketing tushunchani tashkil etadi. Marketing muhiti ko'pgina hollarda firma faoliyatining tasnifini belgilab beradi va marketing tadqiqotlarini o'tkazish jarayonida majburiy tartibda puxta ko'rib chiqiladi.

Marketing strategiyasini aniqlash va uni hayotga tadbiq etish uchun rahbariyat quyidagilar to'g'risida batafsil taassurotga ega bo'lishlari kerak:

- Mehmonxona xo'jaligining yoki turistik korxona ichki muhiti, uning salohiyati va rivojlanish an'analarini;
- tashqi muhiti, uning xususiyatlari va korxonaning unda egallaydigan mavqei to'g'risida.

Turistik korxonaning ichki marketing muhiti tahlili:

Ichki muhit (mikromuhit) — bu korxonaning ichida joylashgan va uning nazoratida bo'lgan umumiy marketing muhitining bir qismidir. U firmaning ishlashiga imkon beradigan va demak, ma'lum vaqt ichida faoliyat ko'rsatish va yashashga urinish imkonini yaratadigan salohiyatni o'zida mujassamlashtiradi.

Ichki muhiti quyidagi yo'nalishlar bo'yicha tahlil qilinadi:

Kadrlar (ularning salohiyati, malakasi; tanlash, o'qitish, va lavozim bo'yicha oldinga surish; mehnat natijalarni baholash va rag'batlantirish; ishlovchilar o'rtasida munosabatlarni saqlash va ma'qullash va h.k.);

* boshqarishni tashkil etish (kommunikatsion jarayonlar; tashkiliy tuzilishlar me'yorlar, qoidalar, tartiblar; huquq va mas'uliyatni taqsimlash; bo'ysunish bosqichlari);

* moliya (bartaraf etishga yo‘l qo‘ymaslik, foydalilikni ta’minlash, sarmoya imkoniyatlarni yaratish);

* marketing (turistik mahsulotning strategiyasi; narx strategiyasi, sotish strategiyasi; kommunikatsion strategiya).

Ichki muhitni tadqiqot qilishdan maqsad — turistik korxonaning kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlash. Aniqlangan kuchli tomonlari korxonaning raqobat kurashida tayanadigan asos bo‘lib xizmat qiladi, qaysiki bu korxonani kengaytirish va mustahkamlashga asos bo‘ladi. Eng kuchsiz tomonlarga alohida e’tibor berilishi kerak. Ularning ko‘pchiligini bartaraf etish uchun harakat qilmoq zarur.

Ichki muhit turistik korxonaning samarali amal qilish imkoniyatlarini belgilab beradi. Agarda, u marketing tamoyillaridan majmualari foydalanishni ta’minlay olmasa, muammolar manbaiga aylanishi mumkin.

Agar mehmonxona xo‘jaligida har xil xizmatlar va xodimlar yagona marketing strategiyasiga bo‘ysinmasa, ya’ni masalan, ayrim bo‘linmalar va xodimlar marketingning umumiy maqsadlarini amalga oshirish manfaatini ko‘zlamasa, «qarama-qarshiliklar» hodisasi ro‘y berishi mumkin. Bunday holatga yo‘l qo‘ymaslik uchun marketing tadqiqotlar jarayonida eng jiddiy tahlilga uchraydigan korxonaning madaniyatini oshirish kerak.

Tashqi muhit:

Tashqi muhit nisbatan mustaqil bo‘lgan ikki tizim osti bo‘lakchalarning majmuasi sifatida ko‘riladi,

* makro muhit.

* bevosita muhit.

Makromuhit turistik korxonasi joylashgan muhitning umumiy sharoitlarini yaratadi. Ko‘pgina hollarda makromuhit alohida olingan firmaga nisbatan o‘ziga xos tavsifdan iborat emas. Ammo ulardan har biri uning ta’siri ostida bo‘ladi va uni boshqara olmaydi.

Makromuhitning demografik omillarni: o'rganish turistik korxonaning bozor imkoniyatlarini tahlilida muhim o'rin egallaydi. Marketing aholi soni, uning aniq mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha joylashuvi, mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lganlar nafaqaxo'rlar, o'quvchilarni ajratgan holda yoshi bo'yicha tuzilishini hisobga oladigan masalalarni ko'rib chiqishi lozim. Qanday bo'lmasin, turistik harakatlanishning o'zgarish an'analari yoshiga, jinsiga va oilaviy sharoitiga bog'liq holda yetarli darajada aniq kuzatiladi. Turizmning faol shakllariga eng ko'p turlanishni 18—30 yoshdagilarda uchraydi. Ammo umumiy turistik harakatlanish 30—50 yoshda eng yuqori bo'ladi. Marketing tadqiqotlari uylanmagan (turmushga chiqmagan)larning harakatchanligi, ayollar erkaklarga nisbatan turizmga ko'proq qiziqishi to'g'risida ham guvohlik beradi.

Turizm yoshi qaytgan odamlarning eng tez rivojlanib boradigan bozori hisoblanadi. Yevropaning 12 mamlakatida o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, 2020 yilga borib aholining 25% ni 60 yoshdagilar tashkil qiladi. AQShda turistlarning umumiy sonidan 28%ni yoshi yetuk bo'lgan sayyohlar tashkil qiladi. Yevropaga jo'naydigan kanadaliklarning 22 % ga yaqini 55 yoshdagi va undan yuqori bo'lgan turistlardir.

Iqtisodiy omillar: ham demografik omillar kabi muhimdir. Firmaning qancha mijozi borligini bilish ham yetarli emas. Ular qancha va qanday xizmatlardan foydalanishni aniqlash muhimdir. Aholining to'lov qobiliyatiga qaysi omillar ta'sir etadi, bularga mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi ham, ish haqining miqdori ham, pulning qadrsizlanishi ham, ishsizlik ham kiradi. Turistik xizmatlarga bo'lgan talabni daromad darajasiga bog'liqligini ham esdan chiqarmaslik kerak.

Aholining xilma-xil guruhlar o'rtasidagi daromadlar taqsimlanishning tuzilishini bilish ahamiyatga molik. Bunday taqsimotning notekisligi — qonuniy hodisa. Buning uchun bozorning ma'lum segmentiga xizmat ko'rsatishni tanlashda firma o'zining salohiyatli mijozlarning moliyaviy holatini e'tiborga olishi kerak. Bundan tashqari, iste'molchilar harajatlari tarkibini o'rganish juda

muhim. Bu turistik xizmatlar iste'moliga aholi har bir guruhi harajatlarning qanday ulushi to'g'ri kelishini taxminan bilishga yordam beradi. Masalan, yer yuzida turistik xizmatlarning aholi iste'moli umumiy tarkibida barqaror o'sib borish an'anasi kuzatilmoqda. Ular har xil mamlakatlar bo'yicha olingan o'rtacha ma'lumotlar oilaning harajatlari umumiy yig'indisida safar harajatlari 12—19 % tashkil qilishi to'g'risida guvohlik beradi. Agar mamlakat aholisi o'z mablag'ini faqat iste'mol buyumlarga sarf qilsa, bunda turistik xizmatlar bozori rivojlanmay qolishi mumkin.

Tabiiy omillar: turistik korxonaning faoliyatiga ta'sir ko'rsatmasligi mumkin emas, chunki tabiiy resurslardan foydalanish, tashqi muhitni asrash umumbashariy masalalari hisoblanadi. Bundan tashqari, tabiiy omillar (iqlim, fauna va flora) — mijozlarni safarni uyushtirishga jalb qilish va turistlarni bu yoki u mintaqaga, mamlakatga sayr qilish uchun muhim unsur. Shunga misol, Bolgariyaning tabiiy resurslari turistlarni yozgi davrda o'ziga jalb qiladi. Belarusda nuqtai nazarni tabiiy boyliklardan foydalanishga qaratish mumkin. Tabiatdan foydalanish ko'proq davlat nazoratida bo'ladi, shuning uchun firmalar o'z marketing faoliyatida bu holatni ham hisobga olishlari shart.

Turistik korxonaning marketingi ijtimoiy-madaniy omillar ta'siri ostida bo'ladi. Jamiyatda qabul qilingan barqaror me'yorlar, ijtimoiy qoidalar, ma'naviy qadriyatlar tizimi, kishilarning tabiatga, mehnatga, o'zaro va o'ziga bo'lgan munosabatlar katta kuchga ega. Ijtimoiy-madaniy omillarni bilish juda muhim. Ular makromuhitning boshqa unsurlariga hamda korxonaning ichki muhitiga (masalan, xodimlarning ishga bo'lgan munosabati) ta'sir etadi. Buning uchun korxonada bo'ladigan ijtimoiy-madaniy o'zgarishlarni o'rganishi va ulardan marketing amaliyotida foydalanishi kerak. Masalan, hozirgi vaqtda ko'pgina mamlakatlarda odamlar o'z bo'sh vaqtini sport va dam olishga bag'ishlamoqchi bo'lishadi. Bu esa turmush muhitini rivojlantirishda yangi imkoniyatlarni yaratib beradi. Marketing vazifasi ijtimoiy-madaniy sohadagi yuqorida aytib

o'tilgan va boshqa an'analarni aniqlash va firma faoliyatini ularga qaratishdan iborat.

Fan-texnikaviy omillar: tahlili uning rivojlanishi xizmatlar yangi turlarini ishlab chiqish, ularni sotish va mijozlarga xizmat ko'rsatishni takomillashtirish uchun bor imkoniyatlardan o'z vaqtida foydalanishga ko'maklashadi.

Fan va texnika rivojlanishi turistik xizmatlarni ommaviy taklif qilish vositalarini takomillashtirishga undaydi (mehmonxona xo'jaligidagi moddiy-texnikaviy bazani, transportda, safarlar byurosida). Bugungi kunda ommaviy turistik safarlarni kompyuter texnikasisiz tashkil etishni tasavvur qilib bo'lmasligini alohida aytib o'tish kerak. Ko'pgina turistik firmalar haqiqiy vaqt rejimdag i joylarni egallash tizimini kompyuterlashtirishga katta e'tibor berishadi. Germaniya va Fransiyada barcha savdo punktlari bunday tizimlar bilan ta'minlangan. Ispaniya, Daniya va Niderlandiyada ulardan foydalanish darajasi yuqoridir.

Fan-texnika taraqqiyoti juda yuqori imkoniyatlarga boy bo'lib, firma uchun jiddiy xavf tug'diradi. Har qanday yangilik eskirgan texnologiya va ish uslublarini siqib chiqarish xavfini yaratadi, agarda fan-texnika tavsifdagi omillarga kerakli e'tibor berilmasa, u salbiy oqibatlar ga olib keladi.

Makromuhitning siyosiy-huquqiy omillari: tadqiqoti birinchi navbatda davlat hokimiyati va boshqarish organlarining jamiyat rivojlanishi sohasida ko'zlagan maqsadlari va davlatning qanday vositalar yordamida o'z siyosatini hayotga tadbiq etish to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lish uchun o'tkaziladi.

Munosabatlarning huquqiy me'yor va chegaralarni o'rnatadigan qonunlar hamda boshqa hujjatlar tahlili turistik korxona harakatining chegaralarni o'zi uchun, o'z manfaatlarini himoya qilish uslublarini aniqlash imkoniyatini beradi. Bunda butunlay xo'jalik faoliyatni va xususan, turistik biznesni tartibga keltiruvchi qonuniy-huquqiy hujjatlarni o'rganish zarur.

Makromuhit omillarni tadqiqotini o'tkazayotganda ikki asosiy narsaga e'tibor berish juda muhim.

Birinchidan, marketing makromuhitining omillari o‘zaro kuchli bog‘langan va bir-biriga ta’sirini o‘tkazadi. Buning uchun ularning tahlilini alohida emas, balki tizilmaviy, majmualiy yuritish kerak.

Ikkinchidan, barcha mikromuhit omillarning har xil korxonalarga bo‘lgan ta’siri bir xil emas va ularning o‘lchamlari, hududiy joylashuvi, faoliyat xususiyatlari va boshqalarga bog‘liq.

Bundan tashqari, firma tashqi omillardan qaysilari uning ishiga eng muhim ta’sir ko‘rsatayotganini o‘zi uchun aniqlab olishi kerak. Buning uchun korxonaga ko‘proq xavf soluvchi omillarni aniqlash muhim bo‘ladi. Bunda firma uchun qo‘shimcha imkoniyatlarni yaratuvchi tashqi omillardagi o‘zgarishlarni bilish maqsadga muvofiq bo‘lardi.

Bevosita atrof-muhitni turistik korxonasi uzluksiz munosabatda bo‘lgan tashqi marketing muhitining tarkibiy qismlarda namoyon bo‘ladi. Bunda firmaning shu uzviy munosabatlarning tavsifi va mazmuniga muhim ta’sir etishini ifodalash muhimdir. Bu bilan u qo‘shimcha imkoniyatlar shakllanishida va uning kelajakdagi borligiga tahdidlarning paydo bo‘lishining oldini olishda faol ishtirok etadi.

Turfirmaning bevosita tashqi doirasida «teng huquqliklarning eng afzali» bu, shubhasiz, iste’molchilardir. Ularni o‘rganish qanday xizmatlarni ular ko‘proq qabul qilish, savdoning qanday hajmiga umid qilish, salohiyatli mijozlar doirasini kengaytirish masalasini yaxshiroq hal qilishga ko‘maklashadi. Marketing iste’molchilarni «qattiq» nazorat qila olmaydi va ulardan o‘z xohishicha foydalana olmaydi. Turistik firma uchun eng muhimi shundaki, marketing iste’molchilari hulqi, o‘zgarishiga juda sezgir bo‘ladi. Ularning keltiradigan sabablarini tahlil qiladi va korxona faoliyatini tartibga keltirishga oid chora-tadbirlarni taklif etadi.

Bevosita tashqi muhitning keyingi muhim tarkibiy qismi bu iste’molchilarni o‘ziga jalb qilishda to‘xtovsiz musobaqada ishtirok etuvchi raqiblardir. Marketing sohasida amerikalik mutaxassis J.Pildich o‘zining «Haridorga yo‘l» kitobida

ta'kidlaganidek, o'z raqibini bilmoq — vaqt bilan kuchni ko'proq sarflab, ularni sinchiklab o'rganmoq demakdir. Nima uchun bu zarur? Chunki faqat raqiblar firma kelajakda erishadigan yoki ustunlikni ta'minlaydigan mezonlarni yuzaga keltiradi.

Marketing bevosita tashqi muhitidagi dastlabki ikki tarkibiy qismlarning o'ta ketgan muhimligini hisobga olgan holda iste'molchilarni o'rganish va raqiblarni o'rganishni marketing tadqiqotlarda mustaqil yo'nalishlarga ajratadi.

Amaliyotda hech qaysi turistik korxona mustaqil tarzda turni tashkil qila olmaydi, mijozlarni zarur bo'lgan transport vositalari, turar joylari bilan ta'minlay olmaydi, ovqatlanishni va h.k. tashkil qila olmaydi. Buning uchun, odatda, majmual xizmat ko'rsatishda yetishmaydigan bo'g'inlari bilan ta'minlaydigan munosib korxona va tashkilotlar «ko'maklashuvchilar» jalb qilinadi:

- * joylashtirish korxonalari;
- * transport vositalari;
- * turistlarga hamroh bo'lish va axborotlarni yetkazib berish xizmatlarni yaratib beradigan sayrgoh byuro va boshqa firmalar;
- * vositachi turistik korxonalar;
- * savdo korxonalari;
- * jamoa ovqatlanish korxonalari va h.k.

Turistik korxonaning faoliyatiga ahamiyatli ta'sirni muloqot qiluvchi jamoalar o'tkazadi. Bu firma faoliyatiga salohiyatli yoki amaliy ta'sir etuvchi shaxslar guruhi, tashkilotlar, muassasalar salohiyatli ta'sir o'tkazish firmaga nisbatan betaraflik saqlash yoki unga ma'lum qiziqish ko'rsatish orqali namoyon bo'ladi.

Turfirmaning doirasida asosiy bo'lgan muloqot jamoalari quyidagilardir:

- * moliyaviy tashkilotlar (banklar, sarmoya jamg'armalari, moliyaviy, sug'urta kompaniyalari va boshqa moliya-kredit institutlari);
- * ommaviy axborot vositalari (matbuot, radio, televideniye);

* jamoatchilik (iste'molchilar ittifoqlari, ijtimoiy shakllanishlar hamda tashkillashtirilgan kuch sifatida namoyon bo'lmaydigan aholi, masalan, kurort doirasida yashovchilar);

* o'z korxonasi to'g'risida o'z munosabatiga ega bo'lgan firma xodimlari. Bundan tashqari, o'z xodimlari ko'ziga ega firmaning yaxshi obro'-e'tibori boshqa muloqot qiluvchi jamoalarga ta'sir qiladi. Demak, turistik korxonasi rahbariyatidan firma xodimlarining axborot olish saviyasini oshirish harakatlari, mehnatini rag'batlantiruvchi chora-tadbirlarni, ijtimoiy kafolatlarni amalga oshirish talab qilinadi.

1.2. Marketing bilan bog'liq bo'lgan Internetning imkoniyatlari

Internet marketingning an'anaviy vositalaridan farqli ravishda o'ziga xos tavsiflarga ega. Internet muhitining asosiy xususiyatlaridan biri, bu axborot taqdim etish va o'zlashtirish borasidagi yuqori samaradorligidir. Ushbu hol korxona va xaridor o'rtasidagi o'zaro aloqani kuchaytirishda marketing imkoniyatlarini ancha oshiradi.

Bundan tashqari, Internet faqatgina kommunikativ funkstiyalar bilan cheklanib qolmasdan bitim tuzish, xaridlarni amalga oshirish va to'lovlarni o'tkazish imkoniyatini ham o'z ichiga olgan holda, global internet bozoriga aylanib bormoqda.

Marketing bilan bog'liq bo'lgan Internetning imkoniyatlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, ular birinchi navbatda quyidagi yo'nalishlarda qo'llanilishi mumkin:

- reklama (mahsulot to'g'risida axborot joylashtirish, elektron xatlarni jo'natish, teleanjumanlarda ishtirok etish);
- savdoni rag'batlantirish;
- jamoatchilik bilan ijtimoiy media aloqalar (tarmoqda press - relizlarni joylashtirish, akstiyadorlar va jamoatchilik uchun joriy axborotni taqdim etish,

korxonani yanada kuchli tanishtirish, korxona va uning mahsulotlari to'g'risidagi savollarga javob qaytarish va h.);

- Internet orqali tovarlarni sotish (elektron savdo);
- marketing tadqiqotlarini o'tkazish;
- sotuvdan keyingi xizmatlarni taqdim etish (maslahat berish, so'rovlar bo'yicha axborot).

Internet – marketing yordamida, quyidagi imkoniyatlardan foydalanish natijasida savdolar hajmini oshirish mumkin.

- yangi mahsulotlarni ishlab chiqish jarayoniga iste'molchilarni jalb qilish;
- talab qilingan vaqtda istalagan mahsulotlar taklif etiladigan, maqsadli iste'molchilar tanlovini yaxshilash - buning uchun qilingan xaridlar xajmi ham o'rganiladi;

1.Quyidagi yo'llar bilan savdo jarayonnini yaxshilash mumkin:

- bozor iste'molchilariga iqtisodiy jihatdan erishish va ularga xizmat ko'rsatish bo'yicha yangi imkoniyatlardan foydalanish;
- taqdim etilayotgan mahsulotlar ustunliklarini yanada yaxshiroq namoyon qilish;
- iste'molchilarga, ularning ijobiy munosabatini qozonish uchun o'z fikrlari tadqiqoti natijalarini ko'rsatish;

2. Quyidagi yo'llar bilan iste'molchilar xarid tajribasini kengaytirish mumkin:


- iste'molchilarga, ularning istaklarini eng yuqori darajada qondiruvchi mahsulotlar to'g'risida maslahat berish;
- iste'molchilar istaklarini to'la qondirish maqsadida qo'shimcha mahsulotlarni etkazib beruvchilar bilan aloqa o'rnatish;
- iste'molchilarga, taklif qilinayotgan mahsulot, uning bir qismi bo'lgan, o'z tizimli istagini loyihalashtirishda yordam ko'rsatish.

3. Quyidagi yo'llar bilan iste'mol tajribasini takomillashtirish mumkin:

- harid qilingan mahsulotlardan foydalanish to'g'risida axborot taqdim etish;

-iste'molchilar istaklari va amaliy tajribasidan kelib chiqqan holda yordamchi xizmatlarni taqdim etish.

1-rasm. Internet marketing tizimi



Internetning eng katta ustunligidan biri, bu biror muammo paydo bo'lishi bilanoq har kuni 24 soat davomida, uni hal qilishga yordam beradigan xizmatlarni taqdim etish imkoniyatidir. Ayrim muammolarni masofadan turib hal qilish, kompyuter diagnostikasi yordamida amalga oshirilishi mumkin.

Internet–marketingdan foydalanish samaradorligi, iste'molchilar qanday tezlik bilan xarid qilishi va mavjud raqobatdosh mahsulotlar o'rtasidagi farqlarni

tushunib etishlariga bog'liq bo'ladi. Bundan kelib chiqqan holda marketing faoliyatining ayrim yo'nalishlari yanada aniqlashtiriladi.

Marketing tadqiqotlarini o'tkazishda Internetdan foydalanish deganda birinchi navbatda quyidagilar nazarda tutiladi. Internetdagi ma'lumot izlash vositalari va kataloglar, raqobatdoshlar serverlariga tashrif buyurish yo'li bilan ular faoliyatining tahlili, bozorlar monitoringi, raqobatdoshlar aloqalari to'g'risida axborotga ega bo'lish; korxona serveriga tashrif buyuruvchilar o'rtasida marketingning turli jabhalari bo'yicha so'rovlar o'tkazish; teleanjumanlar natijalarini o'rganish; boshqa serverlarda o'tkazilgan so'rovlar natijalaridan foydalanish; mijoz va hamkorlarni izlash.

Bozorni o'rganishda kompaniya serveriga kimlar tashrif buyurishini bilish va Internetdagi turli xil ikkilamchi axborotdan foydalanish mumkin.

Marketing faoliyati ayrim yo'nalishlari tanloviga mahsulot differenziatsiyasi va xaridlar tezligining ta'siri

- tadqiqot o'tkazish tezligi;
- so'rov ishtirokchilari o'zlariga qulay bo'lgan vaqtda so'rovda ishtirok etishlari mumkinligi;
- so'rov ishtirokchilarining qaerda yashashi ahamiyatga ega emasligi;
- so'rov ishtirokchilariga so'rov o'tkazuvchining shaxsi hech qanday ta'sir o'tkazmasligi.

- vizual materiallardan foydalanish.

Internetdan foydalangan holda marketing xizmati xodimlari quyidagi imkoniyatlarga ega bo'ladilar:

- assortiment, mahsulot tavsifi va narxlarini tezda o'zgartirish;
- xarajatlarni tejash, magazin faoliyatini ta'minlash, pochta orqali jo'natmalar, kataloglarni nashr qilish va boshqa xarajatlar deyarli yo'q;
- potentsial iste'molchilarga axborot jo'natish va ulardan javob olish yo'li bilan aloqa o'rnatish;
- korxona saytiga tashrif buyurganlar sonini hisoblab borish.

Marketingning asosiy vazifalaridan biri bu yangi mahsulotni bozorda ilgari surishdir. Shunday ekan marketingda reklama ham o'z o'rniga ega. Internet - marketing va reklama esa bugungi kungacha tanish bo'lmagan «Internet – reklama» tushunchasini yuzaga keltirdi. «Internet – reklama» xaqiqatdan ham yangi tushuncha bo'lib uning umumiy tan olingan ta'rifi yo'q. Bu bejiz emas, chunki texnologiyalar rivojlanishi bilan Internetdagi reklama imkoniyatlari ham ilgarilab bormoqda. 1999 yilda nashr qilingan. «Internetda reklama» kitobining 2-chi nashrida («Advertising on Internet»: Robbin Zeff, Brand Aronson; 2-nd edition) Internet - reklamaga shunday ta'rif berilgan:

Internet – reklama - bu an'anaviy reklama va to'g'ridan - to'g'ri maqsadli marketing uyushmasidir.

Internetdagi reklama kampaniyasi vazifalari nimalardan iborat? Tovar (yoki xizmat) Internetda taqdim etilishi bilan unga xaridor topiladi degan fikr albatta noto'g'ri. Ammo, iste'molchi xaridorga aylanishi uchun u bir necha bosqichlardan o'tishi lozim.

Har bir reklama kampaniyasini o'tkazishdan oldin, iste'molchi tovarga nisbatan qaysi marketing bosqichida turganini bilish lozim (misol uchun so'rovnomalar orqali). Bu iste'molchini keyingi bosqichlarga o'tishini ta'minlash uchun qanday hatti – harakatlarni amalga oshirish lozimligini aniqlashga yordam beradi.

Yuqorida qayd etilganlarga qo'shimcha tarzda Internet tarmog'ining quyidagi cheklashlarini ham ta'kidlab o'tish mumkin:

- Internet - biznes katta xarajatlarni talab qiladi;
- biror bir saytga tashrif byurish tovar va xizmatlarni sotish xarajatlarini qoplamaydi. Hattoki dunyoda Internet - savdo etakchisi bo'lgan Amazon.com ham zarar bilan ish yuritadi.
- ko'pgina saytlar bepul, va shuning uchun reklama agentliklari ularda ishtirok etish istagini bildirmaydi. Reklama samaradorligini saytdagi mavjud namoyishlar soni bilan o'lchash noto'g'ri: hozirgi kungacha hech kim bunday

bog'liqlikni aniqlamagan. Pullik saytlarga esa asosan puldor odamlar tashrif buyuradi;

- ko'pgina kompaniyalar tajribasining ko'rsatishicha, OAVdagi reklama va tegishli Internet - saytdagi tashriflar sonini oshishi o'rtasida hech qanday bog'liqlik yo'q. Tashriflar sonini oshishiga Internet - reklama va yuqori sifatli xizmat ko'rsatish olib keladi;

- Internetda asosan birlamchi tekshiruv va o'lchovni (kiyib ko'rishni) talab qilmaydigan tovarlarni sotish mumkin;

- kanallar yuklanmasi juda katta bo'lganligi tufayli, ulardagi axborot tarqalishi sekin amalga oshadi.

Shunday qilib marketing tadqiqotlari o'tkazishda internetdan foydalanishni kengaytirish uchun yangi imkoniyatlar, mahsulot hamda iste'molchilarning o'ziga xos xususiyatlarini ushbu sohadagi qiyinchilik va muammolarni hisobga olish lozim.

Internet–texnologiyalarining ustunliklari, ya'ni onlayn xizmatlari nima uchun kundan - kunga ommaviylashib bormoqda? Birinchidan, onlayn xizmatlari potentsial iste'molchilarga taqdim etishi mumkin bo'lgan beshta asosiy ustunliklar mavjud:

1. Qulaylik. Iste'molchilar qaerda bo'lishidan qat'iy nazar sutkasiga 24 soat davomida tovarlarga buyurtma berishlari mumkin. Ularning vaqti va transport xarajatlari tejaladi.

2. Axborot. Iste'molchilar o'z uyi yoki ofisidan tashkariga chiqmagan holda korxona yoki mahsulot to'g'risida to'liq axborotga ega bo'lishlari mumkin. Ular o'z e'tiborini narx, sifat, xizmat muddati va tovar (xizmat) sotuvda mavjudligi kabi ob'yektiv omillarga qaratishi mumkin.

3. Emostional kechinmalarning kamligi. Onlayn xizmatlaridan foydalanganda sotuvchi bilan yuzma - yuz muloqot bo'lmaydi, va iste'molchiga ishontiruvchi va emostional omillar ta'sir ko'rsata olmaydi.

4. Tezlik. Internet foydalanuvchilari buyurtmani tezda rasmiylashtirishlari va tovar yoki xizmatni uyga etkazilishini kutishlari mumkin.

5. Sir saqlash. Internet orqali xaridlarni, xaridor shaxsini sir saqlagan holda amalga oshirish mumkin. Bu ayniqsa, boy va mashhur insonlar uchun muhimdir.

Onlayn xizmatlari marketologlarga ham muayyan ustunliklarni beradi:

- bozor sharoitlariga tez moslashuv. Marketologlar tezda mahsulotni o'z assortimentiga qo'shishlari, narxlar va tovar ta'riflarini o'zgartirishlari mumkin;

- kamroq xarajatlar. Internet - reklama an'anaviy OAV dagi reklamaga nisbatan ancha arzon;

- o'zaro munosabatlarni barpo etish. Marketologlar o'z xaridorlaridan qo'shimcha axborot olib ularning javoblarini tahlil qilishlari, mijozlari kompyuterlariga foydali maslahatlarni, o'z kompyuter dasturlarining namoyishlarini, reklama materiallarini jo'natishlari mumkin

- auditoriya qamrovi. Kompaniya saytiga nechta foydalanuvchi tashrif buyurganini sanash mumkin. Ushbu axborot, marketologlarga o'z takliflari va reklamasini yaxshilashga yordam beradi.

Bunda, korxonalar uchun ham sezilarli ustunliklar mavjud:

- bozor kengayishi. Firma xalqaro bozorning yangi segmentlarini o'zlashtirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

- e'tiborni jalb qilish. Firma o'z iste'molchilariga yanada yaqin bo'lish va iste'molchilar e'tibori ulushini oshirishga intiladi.

- javob qaytarish darajasining oshishi. Firma iste'molchilar buyurtmalariga tezroq javob qaytarish istagini bildiradi.

- yangi xizmatlar. Firma Internet yordamida o'z mijozlariga yangi xizmatlarni taklif qilish istagini bildiradi.

- xarajatlarning pasayishi. Firma transakstiyaviy xarajatlarni pasaytirish yo'li bilan, tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish va sotish xizmatlarini pasaytirishni ko'zlamoda.

Internet - texnologiyalardan foydalanishning kamchiliklariga to'xtalib o'tish ham maqsadga muvofiq.

Odatda, kompaniya vakillari va iste'molchilar o'rtasidagi munosabatlar o'zaro foydali bo'ladi. Ammo, ayrim hollarda barchasi umuman boshqacha bo'lishi mumkin. Bir vaziyatda iste'molchining jahli chiqqan, ikkinchi vaziyatda kimdir insofsizlarcha faoliyat yuritgan, ayrim hollarda esa aldash va firibgarlik holatlari yuz bergan, hamda insonlarning shaxsiy hayotiga kirish muammolari paydo bo'lishi mumkin.

1.Jahllanish. Ko'pgina foydalanuvchilar, Internetdagi turli xil kompaniyalardan kelib tushadigan takliflar, noqulaylik yaratadi degan fikrdalar. Ayniqsa tushlik yoki juda kech paytdagi buyurtmani to'g'riligini tekshirish bo'yicha telefon qo'ng'iroqlari, malakasiz xodimlar, ko'rsatilgan va mavjud tovarlar assortimentidagi farqlar - bularning barchasi jahl chiqishiga sababchi bo'lishi mumkin.

2.Insofsizlik. Ayrim sotuvchilar iste'molchilarning ishonchidan insofsizlarcha foydalanishlari mumkin. Bu Internet - do'konlarda ayniqsa ko'p uchraydigan holdir. Internet - do'konlarda barcha tovarlar ajoyib tarzda namoyish etilgan, juda katta chegirmalar, umrbod kafolat va xaridni amalga oshirish oddiyligi –bularning barchasi xarid qilish istagiga bardosh bera olmaydigan xaridorlarni jalb qilish uchun amal qiladi.

3.Aldamchilik va firibgarlik. Ayrim sotuvchilar, xaridorlarni to'g'ri yo'ldan urish maqsadida, Internetda aldamchi reklamalarni joylashtiradilar. Ko'pgina hollarda mahsulot tavsiflari, uning ish qobiliyati ancha oshirib yoki «chakana narxi» pasaytirib ko'rsatiladi. Ayrim notijorat tashkilotlari esa, ilmiy tadqiqotlar niqobi ostida maqsadli iste'molchilar to'g'risida axborot yig'ish bilan shug'ullanadilar.

4.Shaxsiy hayotga kirib borish. Bu to'g'ridan - to'g'ri marketingning hal qilinishi qiyin bo'lgan jabhalaridan biridir. Iste'molchi har gal biror tovarga pochta, telefon yoki Internet orqali buyurtma berganda, kredit kartochkasiga ega

bo'lganda yoki biror nashrga obuna bo'lganda, uning ismi sharifi, manzili va boshqa ma'lumotlari kompaniyadagi mavjud iste'molchilar bazasiga kiritiladi. Bir tomondan olib qaraganda iste'molchilar bundan faqat yutib chiqishi lozim. Chunki ularga aynan ularni qiziqtirgan tovarlar taqdim etiladi. Ammo ikkinchi tomondan, marketologlarning savdolar hajmini oshirish istagi, ushbu ma'lumotlardan o'z g'araz maqsadlarida foydalanilishiga olib kelishi mumkin.

Marketologlar ushbu muammolar echimimni topishga harakat qilmoqdalar. Chunki hammasi o'z holicha qoldirsa, Internetdagi faoliyatga hukumat tomonidan cheklashlar qo'yilishi mumkin.

Mijozlarga onlayn xizmat ko'rsatish, faqatgina iste'molchilarga qulaylik yaratibgina qolmay – balki kompaniyaning mijozlar bilan ishlash bo'limi xodimlari ishini ham engillashtiradi. Ushbu bo'lim xodimlari, qo'ng'iroq qiluvchilarga, kompaniya saytiga kirish va u erda barcha savollariga javob topishni maslahat beradilar.

Har bir kompaniya o'z Internet – saytini yaratishdan oldin quyidagi savollarga javob topishi lozim:

- Kompaniya to'g'risida yaxshiroq taassurot qoldirish uchun nima qilish kerak (brend ishlab chiqish)?
- Internet yangi mijozlarni jalb qilishda yordam berishi mumkinmi?
- Kompaniya onlayn faoliyatidan qanday daromadlarni kutish mumkin?
- Qanday qilib, Internet yordamida, xarajatlarni maksimal kamaytirishga erishish mumkin?
- Qanday qilib, Internet mijozlarga yuqori darajada xizmat ko'rsatishi mumkin?

Ushbu beshta savolga javob toping, va Siz Internet - marketingda muvaffaqiyatga erishish uchun to'g'ri yo'ldasiz.

1-jadval. Internet marketingda internetdan foydalanish sohalari va vositalari.

Marketingda Internetdan foydalanish sohasi	Internet vositalari	Maqsadli guruhlar	Marketing tadbirlarini amalga oshirish usullari.	Internet - xizmatlari
1	2	3	4	5
1.1. Biznes-aloqalarni saqlab turish	1.2. -E-mail (elekt-ron pochta); -Usenet (elektron e’lonlar taxtasi); -Listserv (elektron pochta-dagi reestr-la-ri); -Voice mail (ovoz aloqasi); -Video conferencing (vidio anjuman-larni o’tkazish); -MUDS (ko’p foy-dalanuvchilar o’rta-sidagi dialog); -IRC –Internet Relay Chat (muloqotning Internetda qayta uzatilishi) -ijtimoiy media	1.3. Etkazib beruv-chilar, iste’molchilar, agentlar, distribyuter-lar, hamkorlar, tadqi-qot markazlari, xizmat muassasalari	1.4.-Shaxsiy murojaat; -Anjumanlarga mu-rojaat; -E’lonlar taxtasi-dan foydalanish	1.5.- Jo’natmalar ruyxatlari (shu jumladan obuna va monitoring xizmat-lari); -matbuott materi-allarini butlash bo’yicha xizmatlar; -servis yangilik-larini jo’natish; -E’lon taxtalari-dagi reklama xiz-matlari; -halqaror aloqa tashkilotlari: Konfederastiy alar, Guruh bitimlari, Servis guruhlari

2.1.Bozorni o'rganish	2.2. Axborot izlash va uning dasturiy ta'minoti, E-mail, (elektron pochta), shaxsiy sayt, ijtimoiy media	2.3. Mamlakatlar va bozorlar tadqiqoti bo'yicha hisobotlar, tar-moqlarning ixti-soslashgan hisobotlari, savdo aloqalari, agent-lar va disterbyuterlar, bozor etakchilari. Is-te'molchilar (poten-stial va haqiqiy)	2.4. – Ikkilamchi axborotni izlash: a)izlash tizimla-ridan foydalanish; b)biror-bir halqa-ro biznes katalog-lariga murojaat qilish; -so'rovnoma, anketa va intervyu kabi usullardan foyda-langani holdagi, birlamchi tadqi-qotlar	2.5.–Davlat muas- sasalari (shu jum-ladan statistik) tomonidan o'z say-tlarida axborot taqdim etishi; -davriy nashrlar veb-saytlari; -tijorat veb sayt-lari; -kuzatish (impli-stit yondashuv) va hamkorlik (eksp-listit yondashuv) orqali saralash bo'yicha maxsus das-turlar
3.1.Internet or-qali harid	3.2. 1.2 va 2.2 ga o'xshash	3.3. Etkazib beruv-chilar, agentlar dist-ribyuterlar, sheriklar	3.4. –Internet –do'konlar; -auksion savdola-ri; -Internet-super-marketlar; -virtual ko'rgaz-ma–savdolar; -E-mail marken-ting	3.5.–Internet orqa-li moliyaviy xiz-matlarni taqdim etish: Internet ban-klar, broker xiz-matlari va to'lov tizimlarining ri-vojlani-shi; -elektron tijorat hamjamiyatlari

				ni barpo etish
4.1. Internet orqali savdo	4.2. Internet sayt ijtimoiy media	4.3. Global xaridorlar. (potensial va xaqiqiy);	4.4. –Business-to-business. (BZB) (biznes-biznesga) korxonalar o'rtasi-dagi sanoat tovar-lari yoki biznes–xizmatlari savdo-si, hamda ulgurji savdolar; -Business-to-Consumer (BZC) (biznes-iste'mol-chiga)–iste'molchi tovarlarini so'ng-gi iste'molchiga chakana savdosi	4.5. 3.5. ga o'xshash
5.1. Tarmoqdagi tovarlar reklamas	5.2. Internet sayt, e'lonlar doskalari, ijtimoiy media	5.3. Potensial xaridor-lar	5.4. –Tematik va umum-axborot sayt-larida reklama joylashtirish; -kataloglar yaratish; -banner tarmoqla-ri; -E-mail marketing; -hamkorlik	5.5. –Sayt yaratish bo'yicha xizmatlar; -joyini ruyxatdan o'tkazish; -barcha ahamiyatli serverlarda bepul ro'yxatdan

			dastur-lari -ijtimoiy tarmoqlar	o'tkazish; -bannerga server-ning bosh betidagi joyini ta'minlash; -saytni reytingda ishtirok etishi
6.1.Servis va xizmat ko'rsatish	6.2. 1.2. va 4.2 ga o'xshash.	6.3.Xaqiqiy xaridorlar.	6.4. -E-mail bo'yicha maslahatlar. -Yangiliklar to'g'ri-sida web sayt-larda habar berish	6.5.Server yangilik-larini tarqatish

Internet orqali daromad olishning turli xil usullarini ko'rib chiqishdan oldin, shuni ta'kidlab o'tish joizki, ko'pgina tijorat saytlari o'z - o'zidan daromad olib kelish uchun emas, balki boshqa kanallardagi sotuvlar hajmini oshirish uchun yaratilgan - va bu biznes yuritishning o'ziga xos strategiyasi sanaladi. Misol uchun, avtomobillar bilan savdo qiluvchi diler, avtomobillarni Internet orqali sotmasligi ham mumkin, ammo uning Internet sayti iste'molchiga kerak bo'lgan tovar to'g'risidagi barcha axborotni o'zida mujassamlashtirgan. Ishlab chiqaruvchi, o'z saytida, muammolarni hal qilishga yordam berishi mumkin bo'lgan turli xil axborotni, ehtiyot qismlar ro'yxatini va boshqa mahsulotlar nomi va narxi to'g'risidagi axborotni joylashtirishi mumkin. Ammo shu bilan birga u Internet orqali hech nima sotmaydi. Bu ham biznes yuritish strategiyalaridan biridir.

Internet - biznes quyidagi manbalardan daromad olishni nazarda tutadi:

- reklamadan tushadigan daromad. Reklama beruvchilar Sizning saytingizda o'z reklamasini joylashtirish uchun pul to'laydilar;

- boshqa kompaniyalarga yo'llanma berishdan daromadladilar, Siz hamkorlik dasturida ishtirok etasiz va Siz orqali uchinchi bir tomonga borgan xaridorlardan komission xaqlarni olasiz;

- sotuvdan olingan daromad. Internet orqali tovar sotish yoki xizmat ko'rsatishdan olingan daromad.

Internet - marketingning asosiy strategiyasi - bu bozorning egallanmagan yoki qisman egallangan qismini izlashdir. Bozordagi ulushi xaqiqatdan ham juda kichik bo'lgan kompaniyalar nima hisobiga muvaffaqiyatga erishishlari mumkin. Misol uchun, Siz oshxona pichoqlari to'plamini Safeway, K-Mart, Macys yoki boshqa bir istalgan do'konda sotib olishingiz mumkin. Endi tasavvur qiling faqatgina oshxona pichoqlari bilan savdo qilayotgan kompaniya daromadga ega bo'lishi uchun kamida 1-2 mln. kishilik aholiga ega shaharga xizmat ko'rsatishi kerak. Shunday bo'lgan taqdirda ham kompaniya muvaffaqiyati kafolatlanmagan. Ammo Siz o'z tovar yoki xizmatiningizni masofadan turib etkaza olsangiz, Internet orqali Er sharidagi har bir inson Sizning mijozingizga aylanishi mumkin.

Internetda muvaffaqiyatga erishish uchun, uni beqiyos bozor sifatida qabul qilish va hattoki eng kichik kompaniya ham daromadga ega bo'lishi uchun mijozlar topa olishini tushunib etishi lozim.

Tabiiyki ko'pgina Internet - biznes bilan shug'ullanish istagida bo'lgan tadbirkorlarda: Internetda nima bilan savdo qilish eng yuqori daromad olib keladi degan savol ko'p uchraydi. Javob oddiy, bunday mahsulot quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- yuqori darajadagi daromadni ta'minlashi;
- Siz uni tarqatish uchun eksklyuziv huquqga ega bo'lishingiz;
- uni Internet orqali etkazish mumkinligi;
- uni Internet orqali xarid qilishda, iste'molchi oddiy xaridga nisbatan ustunlikka ega bo'lishi;
- mahsulot umumiy ehtiyojni qondirishi;
- mahsulot mustahkam talabga ega bo'lishi.

Agarda tovar yoki xizmat ushbu talablarning ko'pchiligiga javob bersa, u Sizga daromad olib keladi. To'g'risini aytganda, ushbu talablarning barchasiga javob beradigan mahsulotning o'zi yo'q. Shuning uchun ham «ideal» mahsulotni izlash befoyda.

Internet – biznes bilan shug'ullanishni «Internet yordamida million dollar topish uchun nima qilish kerak» degan savoldan emas, balki: «Kaysi ishni men hammadan yaxshi bajara olaman» degan savolga javob topishdan boshlash lozim. Kompaniya faoliyati aynan shuning atrofida barpo etilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

1.3.Mobil marketing –zamonaviy internet marketingning usuli sifatida

Uyali aloqa vositalari orqali marketing (Mobile marketing) – simsiz telefonlar yoki telefon turiga kiradigan uskunalar, telekommunikatsion texnologiya va tizimlar orqali marketingni amalga oshirilishidir. Ya'ni, Mobil marketing tovar va xizmatlarni harakatlanishini, marketing va reklama aksiyalarini uyali telefon vositasida amalgam oshirishdir.

Mobil marketing texnologiyalari:

- SMS marketing –mobil marketingining keng tarqalgan ko'rinishi bo'lib, abonentlar va reklama qiluvchilar uchun juda keng qulayliklar yaratilgan.
- IVR (ovozli xizmatlar) –bu texnologiya, qaysikim endigina bizning davlatga kirib kelmoqda. Reklama qiluvchilar uchun eng mashhur keyslardan biri bo'lib, avtomatik interactive xizmatlar ishlatiladi.
- MMS –bu texnologiya, qaysikim mobil marketing orasida unchalik keng tarqalmagan, lekin operatorlar va uyali aloqa abonentlari o'rtasida mobillanuvchanlik mavjud.
- Mobil kontenti –telefon bezatilishi uchun rasmlar, musiqalar, logotiplar, mavzular , slaydshoular va hokazo.

- Java va o`yinlar –mobil telephoning xotirasidagi programmalar J2ME tilida yozilgan o`yinlar va iboralar konkret mijoz ostida brend bo`lishi mumkin.
- Bluetooth –simsiz texnologiya, qaysikim smslarni, rasmlarni, musiqalarni va xoxlagan kontentni telefondan telefonga 10-15 metr oralig`ida yuborishi mumkin.
- QR kodlardan foydalanish orqali reklama
- Mobile Apps imkoniyatlari orqali reklama

Mobil marketing vazifalarini aniqroq uch yirik yo`nalishga ajratish mumkin.

1. Tashki bozor muhitni o`rganish:

- makromuhit;
- iste'molchilar;
- bozor kon'yukturasi va sig'imi, uning segmentlari;
- raqobatchilar va raqobat, vositachilar va sheriklar faoliyati.

2. Ichki marketing jarayonlar va qarorlar:

- tovar siyosati – narx hosil bo`lishi;
- reklama va tovar, xizmatlar firma imidjini ilgari surishning boshqa turlari va

yo'llari;

- sotuv faoliyati va sotuvlar.

3. Faoliyatning o`ziga xos sohalari va usullari:

- ma'lumot bilan elektron almashuvi;
- elektron savdo;
- elektron bitimlar;
- internet do'konlar faoliyatini tashkil etish.


Mobil marketing tovar va xizmatlarni harakatlanishini, marketing va reklama aksiyalarini uyali telefon vositasida amalgam oshirishdir.

Mobil marketingini ishlatish sizga yordam beradi, agarda siz rejalashtirgan bo'lsayiz:

- reklama aksiyasini tashkil etish;
- sotuvni rag'batlantirish aksiyalarini o'tkazish;
- PR(omma bilan aloqadorlik) aksiyalarini tashkil etish;

- savol javob yoki anketa sifatida o'tkazish;
- iste'molchilarni ma'lumotlar bilan qo'llab quvatlash;
- entertainment marketingni o'zining aksiyasida ishlatish;
- iste'molchilar hamkorini tashkil etish va h.k.

2-rasm. Mobil marketing vazifalari



Mobil marketing –bu marketing xususiyatlari kompleksi, uyali aloqada ishlatiladigan Tovar va xizmatlarning harakatiga qaratilgan. Bugungi kunda, mobil marketing texnik va marketing yechimlariga ega, qaysikim bir qancha yechimlarni yecha oladi.

Texnik instrumentlar o'rtasida, qaysikim hozirgi kunda sun'iy marketolog yaxshi ishlata oladi. :

- SMS marketing –mobil marketingining keng tarqalgan ko'rinishi bo'lib, abonentlar va reklama qiluvchilar uchun juda keng qulayliklar yaratilgan.

- IVR (ovozli xizmatlar) –bu texnologiya, qaysikim endigina bizning davlatga kirib kelmoqda. Reklama qiluvchilar uchun eng mashhur keyslardan biri bo'lib, avtomatik interactive xizmatlar ishlatiladi.

- MMS –bu texnologiya, qaysikim mobil marketing orasida unchalik keng tarqalmagan, lekin operatorlar va uyali aloqa abonentlari o'rtasida mobillanuvchanlik mavjud.

